


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil «7» 07 dagi 3 - sonli yig‘ilishida ma‘qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022 yil «19» 07 dagi 233 -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.

Mazkur malaka talablari “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari.....	5
2	60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
	Bibliografik ma'lumotlar	8
	Kelishuv varag'i.....	9

1. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi

60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llash sohasi

1.1.1. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma (bo'limi) boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shakslar.

1.2. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi – “Veterinariya” ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u veterinariya tashkilotlarida mehnat faoliyatini tashkil etish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'nalish bo'lib, veterinariya – sanitariya ekspertizasi laboratoriyalarida mehnat faoliyatini tashkil etish, mehnatni me'yorlash, aholini zooantropnoz kasalliklardan himoya qilish va oldini olish bo'yicha zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kushxonalar, chorva mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar, logistika markazlari, zaxira oziq-ovqat omborlari, dehqon bozorlari veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyalari, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiradigan korxonalar, savdo obyektlari va go'sht mahsulotlarini sifatini oshirishga oid masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- veterinariya tizimidagi jarayonlar, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorat boshqarmasi, veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalari sifati va muomilasini nazorati bo'yicha davlat ilmiy markazi, viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari, shahar va tumanlarning veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat bo'limlari, respublika, viloyat, tuman va shaharlarning hayvonlar kasalliklariga tashxis qo'yish va oziq-ovqat xavfsizligi davlat markazlari hamda idoraviy, ishlab chiqarish va xususiy veterinariya xizmati tashkilotlari;

- logistika markazlari; chorvachilik va o'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalari; dehqon bozorlari veterinariya sanitariya ekspertiza laboratoriyalari; zaxira oziq-ovqat omborlari, hayvonlar kasalliklari tashhisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazlari, ixtisoslashgan so'yish korxonasi va savdo obyektlari; mudofaa vazirligi, chegara qo'shinlari hamda bojxona qo'mitasi idoralari; zooveterinariya shaxobchalari, veterinariya uchastkalari va punktlari, davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorat punktlari; qishloq xo'jalik va uy hayvonlari, mo'ynali va yovvoyi hayvonlar, parrandalar, asalari, baliqlar va o'simlik oziq-ovqat mahsulotlari; veterinariya sanitariya ekspertizasida ishlatiladigan laboratoriya diagnostik asbob-uskunalar, ilmiy – tadqiqot jarayonlari; davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari; ilmiy-tadqiqot jarayonlari;

- **60840400** – *Veterinariya sanitariya ekspertisasi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayrlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umukasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertisasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

1.2.4. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertisasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari

60840400 – *Veterinariya sanitariya ekspertisasi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- chorvachilik mahsulotlari bilan ishlaydigan korxonalar tuzilishi va boshqaruv faoliyatini o'rganish va O'zbekiston Respublikasi veterinariya to'g'risidagi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

- chorvachilik mahsulotlari bilan ishlaydigan korxonalar va tashkilotlar faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini bilan ishlaydigan tashkilotlar va korxonalarining bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash orqali o'z faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, uni bajarish va nazorat qilish;

- ishlab chiqarish jarayonida kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiiq etish va sifatni boshqarish.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos ravishda faoliyat yuritish;

- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida investitsion loyihalarni ishlab chiqish va korxonalarga investisiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yaratish va boshqarish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- loyihalar samaradorligini baholash;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqotlar olib borish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;

- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

- илмий тадқиқот фаолиятини юритишда internet tarmog'ida eng sўnggi ilmiy янгиликлардан фойдаланиш ва уларни таҳлил қилиш;

- sohaga oid adabiyot ma'lumotlarini o'rganish hamda tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ilmiy tadqiqot ishlanmalarini yaratish;

- amaliyotga tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- biznes-rejalarni ishlab chiqish, biznesni tashkil etish va amalga oshirish;

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish

2. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qoʻllay bilishi, axborotlarni yigʻish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan boʻlishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, oʻz ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sogʻlom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati toʻgʻrisida tasavvurga ega boʻlish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- meʼyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish koʻnikmalariga ega boʻlish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qoʻllash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish koʻnikmalariga ega boʻlish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, maʼlumotlar bazasini yuritishni bilish;

- veterinariya obyektlarida strategik va operasion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

- odamlar va hayvonlar oʻrtasida oziq-ovqat mahsulotlari orqali tarqaladigan kasalliklarini oldini olish chora – tadbirlarini ishlab chiqish va nazorat qilish koʻnikmalariga ega boʻlish;

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan veterinariya-sanitariya ekspertizasini amalga oshirish uquviga ega boʻlish;

- goʻsht va goʻsht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, yogʻ, tuxum, asal, baliq, meva-sabzavot, poliz va don mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertisasi tekshirish ishlarini oʻtkazish koʻnikmalariga ega boʻlish;

- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari boʻyicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbiiq etish koʻnikmalariga ega boʻlish.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat turi, kredit, modul, bakalavriyat, o'quv reja, fan dasturi, o'quv jarayoni, malakaviy amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ta'lim sifati nazorati, profil, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, veterinariya ta'lim sohasi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari, veterinariya va chorvachilik rivojlantirish bo'limlari, hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi, veterinariya sanitariya ekspertiza laboratoriyalari, qishloq xo'jalik hayvonlari, uy hayvonlari, mo'ynali hayvonlar, parrandalar, baliqlar, asalarilar, ekzotik va yovvoyi hayvonlar, yuqumsiz kasalliklar, infeksiyon kasalliklar, parazitlar kasalliklar, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, yog', tuxum, asal, baliq, meva-sabzavot, poliz va don mahsulotlari, diagnostik asbob-uskunalar, reaktivlar, biopreparatlar.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQLDI:



**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

Rektor  **X.B. Yunusov**

2022 yil « _____ » _____

M.O'.

KELISHILDI:


**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tadbiq etish markazi**

Direktor  **Sh. Yakubov**

2022 yil « _____ » _____

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi
Veterinariya va chorvachilikni
rivojlantirish davlat qo'mitasi**

Rais  **B.T. Norqobilov**

2021 yil « _____ » _____

M.O'.

**Toshkent davlat agrar
universiteti**


1-prorektor  **S.Y. Islomov**

2022 yil « _____ » _____

M.O'.



**Veterinariya ilmiy-tadqiqot
instituti**

Direktor  **B.A. Elmurodov**

2021 yil « _____ » _____

M.O'.

